Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 11 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 11

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 11

ТОШКЕНТ-2026

ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ | LOOK TO THE PAST
№11 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2026-11

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Бобожонова Дилором Бобожоновa
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc), Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc) Шаҳрисабз далат педагогика институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор, Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор, Қозоғистон дипломатия академияси

Ғоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қарши давлат техника университети

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Қарши давлат университети

Маҳкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc), Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc), Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc), Доғистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор Ўзбекистон Миллий университети

Тўхтабаев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), профессор, Наманган давлат университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Аббасов Беҳзод Бахтиёрович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат иқтисодиёт университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Xurshid Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Diloram Babajanova
YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.....5

2. Abdurasul Boltaev
TURONI ZAMINNING DAVLATChILIKDAGI TUTGAN O'RNI.....12

3. Muysin Dusaliyev
QO'QON XONLIGINING BUXORO VA XIVA BILAN HUDUDIY NIZOLARINING KELIB CHIQISH SABABLARI VA OQIBATLARI.....21

4. Кобзева О.П.
ИСТОРИЯ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ КУШАНСКОЙ ИМПЕРИИ: ОТ ТОРГОВОЙ ДИПЛОМАТИИ К ДИПЛОМАТИИ «МЯГКОЙ СИЛЫ».....30

5. Ulmas Muminov
"DASHT MADANIYATI" TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI VA ILMIY TALQINLARI.....37

6. Asliddin Namazov
XX ASRNING 30-YILLARI MADANIY-MA'RIFIY MUASSASALARNING KOMFIRQA SIYOSIY-G'OYAVIY TARBIYA O'CHOQLARIGA AYLANTIRILISHI VA UNING OQIBATLARI.....42

7. Jurabek Polvonov
XIVA XONLIGI DIPLOMATIYASI VA ELCHILIK MUNOSABATLARI: TARIXIY-MANBASHUNOSLIK TAHLILI.....46

8. Soxiba Sulaymanova
G'ARBIY TURK XOQONLIGINING TASHKIL TOPISHI VA TANAZZULLI.....55

9. Rano Urazova
THE AMESHAPENTA SYSTEM IN ZOROASTRIANISM AND ITS FUNCTIONAL ESSENCE: CONCEPTS OF GOODNESS AND DIVINE ORDER.....60

10. Муродилла Ҳайдаров
Г. САФАРОВНИНГ МУСТАМЛАКА ИНҚИЛОБИ (ТУРКИСТОН ТАЖРИБАСИ) АСАРИДАН ПАРЧА.....70

11. Ғайратбек Хайдаров
ХАЛҚАРО ИНВЕСТИЦИЯ ВА ТУРИЗМ СОҲАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК АЛОҚАЛАРИ (Фарғона вилояти мисолида).....82

12. Тохир Шокиров
РАЗВИТИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ НАРОДОВ УЗБЕКИСТАНА И ЕГИПТА В ДРЕВНОСТИ.....89

JOURNAL OF LOOK TO THE PAST
ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ISSN: 2181-9599
www.tadqiqot.uz

Ulmas Ravshanqulovich Muminov,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E-mail: umuminov089@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0007-7144-7298

“DASHT MADANIYATI” TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI VA ILMIY TALQINLARI

For citation: Ulmas R. Muminov. FORMATION AND SCIENTIFIC INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF “STEPPE CULTURE”. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 11.

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.24141339

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada “dasht madaniyati” va “dasht sivilizatsiyasi” tushunchalarining shakllanish jarayoni, nazariy-metodologik evolyutsiyasi va zamonaviy ilmiy talqinlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Yevroosiyo arid zonasidagi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi jamiyatlar madaniyati o‘troq dehqonchilik sivilizatsiyalarining shunchaki “chegaraviy hududi” emas, balki o‘ziga xos ekologik, iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanish modeli sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada Botay madaniyati, Sak-Xunnu davri, Turk hoqonligi, Qipchoq siyosiy birlashmalari va Oltin O‘rda misolida dasht jamiyatlarining davlatchilik, harbiy tashkilot, yozma madaniyat hamda voha madaniyatlari bilan o‘zaro aloqalari tahlil etiladi. Shuningdek, sovet davri va mustaqillik davri tarixshunosligida ushbu muammoning turlicha talqin etilishi ko‘rsatiladi.

Tadqiqot natijasida “dasht madaniyati” tushunchasi faqat geografik-madaniy kategoriya emas, balki ko‘chmanchi xo‘jaligi, siyosiy institutlar, harbiy tashkilot va madaniy simbioz jarayonlarini o‘z ichiga oluvchi kompleks tarixiy-madaniy fenomen sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: dasht madaniyati, dasht sivilizatsiyasi, nomadizm, Botay madaniyati, Turk hoqonligi, Oltin O‘rda, yevrotsentrizm, voha-dasht simbiozi.

Муминов Улмас Равшанкулович,
Институт предпринимательства и педагогики им. Денова
Доктор философии (PhD) в области исторических наук, доцент
E-mail: umuminov089@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0007-7144-7298

ФОРМИРОВАНИЕ И НАУЧНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПЦИИ “СТЕПНОЙ КУЛЬТУРЫ”

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется процесс формирования, теоретико-методологическая эволюция и современные научные интерпретации понятий «степная культура» и «степная цивилизация». В исследовании рассматривается культура кочевых и полукочевых обществ засушливой зоны Евразии не просто как «пограничная зона» оседлых земледельческих

цивилизаций, а как модель собственного экологического, экономического, политического и культурного развития. В статье анализируется взаимодействие степных обществ с государственностью, военной организацией, письменной культурой и культурами оазисов на примере Ботайской культуры, сак-хуннского периода, тюркского каганата, кипчакских политических объединений и Золотой Орды. Также показаны различные интерпретации этой проблемы в историографии советской эпохи и периода независимости.

В результате исследования концепция «степной культуры» интерпретируется не только как географическо-культурная категория, но и как сложный историко-культурный феномен, включающий в себя кочевое хозяйство, политические институты, военную организацию и процессы культурного симбиоза.

Ключевые слова: степная культура, степная цивилизация, кочевничество, ботайская культура, Тюркский каганат, Золотая Орда, евроцентризм, симбиоз оазис-степа.

Ulmas R. Muminov,
Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, Associate Professor
E-mail: umuminov089@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0007-7144-7298

FORMATION AND SCIENTIFIC INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF “STEPPE CULTURE”

ABSTRACT

This article examines the formation, theoretical evolution, and contemporary interpretations of the concepts of “steppe culture” and “steppe civilization.” It seeks to reconsider nomadic and semi-nomadic societies of the Eurasian arid zone not as peripheral or secondary communities, but as bearers of a distinctive ecological, economic, political, and cultural model of development. Methodology. The study employs historical-genetic, comparative-historical, civilizational-cultural, and interdisciplinary approaches. Archaeological materials, Old Turkic runic inscriptions, Arabic and Persian written sources, and Soviet and post-Soviet historiographical literature are analyzed as primary and secondary sources. Findings. The study demonstrates that “steppe culture” and “steppe civilization” are related but not identical concepts. Steppe culture refers primarily to the economic practices, material culture, beliefs, customs, and artistic traditions of nomadic communities, whereas steppe civilization encompasses a broader system of pastoral economy, political organization, military institutions, legal norms, writing, trade, and intercultural interaction. The analysis of the Botai culture, the Saka-Hunnic period, the Turkic Khaganate, Kipchak political formations, and the Golden Horde shows that steppe societies developed complex forms of statehood, military organization, mobility, and cultural exchange. The domestication of the horse and the development of pastoral nomadism contributed to the formation of extensive networks of economic and cultural interaction across Eurasia. The article also emphasizes the importance of the symbiotic relationship between oasis-based sedentary communities and steppe pastoral societies in Central Asia. This interaction included the exchange of livestock products, grain, handicrafts, military protection, trade security, and cultural practices. Originality. The article argues that steppe culture should be interpreted as a multidimensional historical and cultural phenomenon rather than merely as a geographical category or a form of economic activity. It also highlights the need to avoid excessive generalizations when applying the concept of “steppe civilization” to diverse historical societies.

Index Terms: steppe culture, steppe civilization, nomadism, Botai culture, Turkic Khaganate, Golden Horde, Eurocentrism, oasis-steppe symbiosis, historiography.

Dolzarbligi:

Yevroosiyo arid zonasida shakllangan ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi jamiyatlar madaniyati jahon tarixshunosligida uzoq vaqt o‘troq dehqonchilik sivilizatsiyalariga nisbatan

ikkilamchi hodisa sifatida talqin etilgan. Yevrotsentrik va o‘troq-sentrik yondashuvlar doirasida sivilizatsiya mezonlari asosan sug‘orma dehqonchilik, shaharsozlik, yozuv, monumental me’morchilik va markazlashgan davlat boshqaruvi bilan bog‘langan. Natijada dasht jamiyatlari ko‘pincha “ibtidoiy”, “vayronkor” yoki “sivilizatsiyadan tashqari” kuchlar sifatida baholangan (RUDN Open Repository, 2018). XX asr oxiri va XXI asr boshlarida arxeologiya, etnologiya, paleogenetika hamda manbashunoslik sohasidagi yangi tadqiqotlar bu qarashlarni qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Dasht makonida shakllangan chorvachilik xo‘jaligi, harbiy-siyosiy tashkilotlar, ko‘chish yo‘nalishlari, savdo aloqalari va madaniy almashinuv tizimlari ko‘chmanchi jamiyatlar taraqqiyotining mustaqil modelini tashkil etishi mumkinligi ilmiy adabiyotda tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda (Kumeqov, 2018; Rtvelad ze, 2005).Shu bois maqolaning maqsadi — “dasht madaniyati” va “dasht sivilizatsiyasi” tushunchalarining ilmiy muomalaga kirib kelish jarayonini, ularning nazariy-metodologik evolyutsiyasini hamda Markaziy Osiyo tarixshunosligidagi aks-sadolarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda quyidagi vazifalar belgilangan:

“dasht madaniyati” va “dasht sivilizatsiyasi” atamalarining mazmuniy farqini aniqlash;

yevrotsentrik va o‘troq-sentrik talqinlarning ilmiy-metodologik cheklovlarini ko‘rsatish;

Botay madaniyatidan Oltin O‘rdagacha bo‘lgan davrda dasht jamiyatlarining xo‘jalik, siyosiy va madaniy institutlarini tahlil qilish;

Markaziy Osiyo vohalari bilan dasht hududlari o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy simbiozni yoritish;

sovet va mustaqillik davri tarixshunosligida mavzuning talqinlanishidagi o‘zgarishlarni baholash.

Metodlar va o‘rganilganlik darajasi:

Tadqiqotda tarixiy-genetik, taqqoslama-tarixiy, sivilizatsion-madaniy va fanlararo yondashuvlardan foydalanilgan. Tarixiy-genetik yondashuv “dasht madaniyati” tushunchasining XIX asr oxiridan XXI asrgacha bo‘lgan rivojlanish bosqichlarini aniqlash imkonini berdi. Taqqoslama-tarixiy tahlil orqali o‘troq dehqonchilik va ko‘chmanchi chorvachilik jamiyatlarining xo‘jalik tuzilmasi, siyosiy boshqaruvi va madaniy institutlari qiyoslandi. Sivilizatsion-madaniy yondashuv jamiyatni faqat ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar orqali emas, balki ekologik muhitga moslashuv, moddiy-ma’naviy qadriyatlar va siyosiy tashkilotchilik tajribasi orqali baholashga imkon berdi (RUDN Open Repository, 2018). Tadqiqotda arxeologik yodgorliklar, qadimgi turkiy bitiklar, arab-fors geograflari va sayyohlarning asarlari, shuningdek sovet va zamonaviy tarixshunoslik adabiyotlari tahlil manbasi sifatida xizmat qildi. Tadqiqotning asosiy manba guruhlari quyidagilardan iborat: Botay madaniyati, Sopolli, Jarqo‘ton va Chingiztepa-2 yodgorliklariga oid arxeologik materiallar;

O‘rxun-Enasoy yodgorliklari va qadimgi turkiy runik bitiklar;

Tamim ibn Bahr, Al-Idrisi va Ibn Battuta kabi arab-fors mualliflarining yozma merosi;

V. Bartold, V. Radlov, N. Yadrintsev, A. Bernshtam, S. Tolstov, L. Gumilev, K. Shaniyozov, E. Rtveladze va A. Asqarov kabi olimlarning tadqiqotlari;

sovet davri va mustaqillik davri tarixshunosligiga oid ilmiy nashrlar (Asqarov, 2007; Mamatqulov, 2025; Umarov, 2014).

Tadqiqot natijalari:

“Dasht madaniyati” va “dasht sivilizatsiyasi” atamalari bir-biriga yaqin, ammo to‘liq sinonim emas. “Dasht madaniyati” ko‘proq ko‘chmanchi jamiyatning xo‘jalik madaniyati, moddiy buyumlari, urf-odatlari, diniy qarashlari va san’atini anglatadi. “Dasht sivilizatsiyasi” esa kengroq tushuncha bo‘lib, u xo‘jalik modeli, siyosiy boshqaruv, harbiy tashkilot, huquqiy normalar, yozuv va madaniy aloqalarni o‘z ichiga oladi (Kumeqov, 2018; RUDN Open Repository, 2018). XIX asr oxirida V. Bartold, N. Yadrintsev va V. Radlov kabi olimlarning qadimgi turkiy bitiklar, xitoy, arab va fors manbalarini o‘rganishi dasht xalqlarining rivojlangan davlatchilik va madaniy an’analariga ega ekanligini ko‘rsatdi. Sovet davrida marksistik yondashuv ko‘chmanchi jamiyatlarni asosan “feodal-patriarxal” munosabatlar doirasida talqin qildi. Shunga qaramay, A. Bernshtam, S. Kiselev, S. Tolstov, L. Gumilev va K. Shaniyozov kabi tadqiqotchilar dasht va voha madaniyatlari

o‘rtasidagi aloqalarni ilmiy tahlil qilishga hissa qo‘shdi. Mustaqillik davrida O‘zbekiston va Markaziy Osiyo tarixshunosligida mavzu yanada kengaydi. M. Kozybayev, B. Kumeqov, V. Zaybert, A. Asqarov, E. Rtveladze va Sh. Shaydullayev kabi olimlarning ishlarida ko‘chmanchi madaniyat o‘troq sivilizatsiyaning periferiyasi emas, balki o‘ziga xos tarixiy-madaniy model sifatida talqin etila boshlandi (Asqarov, 2007; Kumeqov, 2018; Rtveladze, 2005; Shaydullayev, 2009).

Dasht sivilizatsiyasining shakllanishida otning xonakilashtirilishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Botay madaniyati yodgorliklari otning erta xonakilashtirilishi bilan bog‘liq eng muhim arxeologik dalillardan biri hisoblanadi. Otning chorvachilik, transport va harbiy sohadagi roli yaylov chorvachiligining rivojlanishi, mavsumiy ko‘chishlar tizimining shakllanishi hamda keng hududlarda iqtisodiy-madaniy aloqalarning kuchayishiga zamin yaratdi (Marg‘ulon nomidagi Arxeologiya Instituti, 2022; Qarshiyev et al., 2025). Ko‘chmanchi xo‘jaligining asosiy xususiyati uning ekologik muhitga moslashuvi edi. Qishki yaylovlar, suv manbalari, chorva zotlarining tanlanishi va mavsumiy ko‘chish yo‘nalishlari dasht jamiyatlarining hayotiy strategiyasini belgilab berdi. Bunday tizim yer resurslaridan foydalanishning o‘troq dehqonchilik modelidan farq qiluvchi, ammo o‘ziga xos samarali shaklini yaratdi. O‘troq jamiyatlar uchun sug‘oriladigan yer, shahar va hunarmandchilik markazlari asosiy resurs bo‘lgan bo‘lsa, ko‘chmanchi jamiyatlar uchun chorva podalari, yaylovlar va harakatchanlik muhim ahamiyat kasb etdi.

Biroq bu farqlarni mutlaq qarama-qarshilik sifatida talqin qilish noto‘g‘ri bo‘ladi, chunki ikkala model doimiy ravishda bir-birini to‘ldirgan va o‘zaro ta’sirlashgan (Rtveladze, 2005). Dasht jamiyatlarida davlatchilik tajribasi mavjud bo‘lgan. Saklar davrida harbiy-aristokratik tabaqalanish, “oltin odam” kabi ramziy belgilar va “hayvonot uslubi” san’ati shakllandi. Xunnu siyosiy birlashmasida qabilaviy tuzilmalar markazlashgan harbiy boshqaruv bilan uyg‘unlashdi. Turk hoqonligi esa keng hududlarni boshqarish, harbiy tashkilot va diplomatiya sohasida muhim tajriba to‘pladi (Qarshiyev et al., 2025). Qadimgi turkiy runik yozuvi dasht sivilizatsiyasining muhim madaniy yutug‘i hisoblanadi. U nafaqat ma’muriy va diplomatik ehtiyojlar uchun xizmat qilgan, balki turkiy xalqlarning tarixiy xotirasi, siyosiy ideologiyasi va dunyoqarashini aks ettirgan. XI–XIV asrlarda Dashti Qipchoq hududida shakllangan siyosiy-madaniy tajriba Oltin O‘rda davrida yanada murakkablashdi. Oltin O‘rda dasht chorvachiligi, shahar madaniyati, xalqaro savdo va turli etno-diniy guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni birlashtirgan ko‘p qatlamli davlat modelini namoyish etdi (UNESCO/Ufaras, 2026). Markaziy Osiyoda voha va dasht madaniyatlari bir-biridan ajralib turuvchi yopiq tizimlar emas, balki doimiy o‘zaro ta’sirda bo‘lgan hududlar edi. Ko‘chmanchi chorvadorlar o‘troq aholiga chorva mahsulotlari, teri, jun va ot yetkazib bergan bo‘lsa, voha aholisi ularga don, hunarmandchilik buyumlari, matolar va shahar madaniyatiga oid tajribalarni taqdim etgan (Rtveladze, 2005; Toshboyev & Eshmamatova, 2025). Bu o‘zaro ta’sir faqat iqtisodiy almashinuv bilan cheklanmagan. Harbiy xavfsizlik, karvon savdosi, diplomatiya, etnik migratsiya va madaniy sintez jarayonlari ham voha-dasht munosabatlarining muhim yo‘nalishlari bo‘lgan. Masalan, Ipak yo‘li bo‘ylab amalga oshirilgan savdo aloqalari voha shaharlari va dasht hududlari o‘rtasida mustahkam iqtisodiy bog‘liqlikni vujudga keltirdi.

Sovet davri tarixshunosligida Markaziy Osiyo tarixi ko‘pincha marksistik formatsion yondashuv va ideologik qoliplar doirasida talqin qilingan. Bu esa ko‘chmanchi jamiyatlar tarixini bir yoqlama baholashga olib kelgan. Mustaqillik yillarida esa tarixiy jarayonlarni ko‘p qirrali, manbaga asoslangan va sivilizatsion-madaniy yondashuv orqali o‘rganish tendensiyasi kuchaydi (Mamatqulov, 2025; Tursunov et al., 2012;). Zamonaviy tadqiqotlarda dasht madaniyati O‘zbekiston va Markaziy Osiyo tarixining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. O‘troq voha madaniyati bilan ko‘chmanchi dasht madaniyatining o‘zaro ta’siri mintaqaviy etno-madaniy muhitning shakllanishida, shuningdek davlatchilik an’analarining rivojlanishida muhim rol o‘ynagan (Asqarov, 2007;). Tadqiqot natijalari “dasht madaniyati” tushunchasini faqat geografik hudud yoki xo‘jalik turi sifatida emas, balki ko‘p qatlamli tarixiy-madaniy fenomen sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi. Dasht jamiyatlarining rivojlanish modeli o‘troq dehqonchilik sivilizatsiyalaridan farq qilgan, ammo bu farq taraqqiyotning pastligini emas, balki ekologik sharoit, xo‘jalik tuzilmasi va siyosiy-madaniy strategiyalarning xilma-xilligini aks ettirgan. Shu bilan birga,

“dasht sivilizatsiyasi” tushunchasidan foydalanganda uni mutlaqlashtirishdan ehtiyot bo‘lish kerak. Dasht jamiyatlari yopiq va o‘zgarishsiz tizim bo‘lmagan; ular voha shaharlari, savdo yo‘llari, dehqonchilik hududlari va turli etnik-madaniy guruhlar bilan uzluksiz aloqada bo‘lgan. Shu sababli “simbioz” tushunchasi dasht va voha madaniyatlarini tushunishda eng samarali tahlil kategoriyalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa:

“Dasht madaniyati” va “dasht sivilizatsiyasi” tushunchalari XIX asr oxiridan boshlab ilmiy muomalaga kirib, XX–XXI asrlarda nazariy-metodologik jihatdan rivojlangan.

Yevrotsentrik va o‘troq-sentrik yondashuvlar dasht jamiyatlarining o‘ziga xos taraqqiyot modelini to‘liq aks ettira olmaydi.

Botay madaniyatidan boshlanib, Sak-Xunnu davri, Turk hoqonligi, Qipchoq siyosiy birlashmalari va Oltin O‘rda davrigacha bo‘lgan jarayonlar dasht jamiyatlarida murakkab xo‘jalik, siyosiy va madaniy institutlar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyoda voha va dasht madaniyatlari o‘rtasidagi iqtisodiy, harbiy va madaniy simbioz mintaqaviy tarixning muhim omili bo‘lgan.

O‘zbekiston va Markaziy Osiyo tarixshunosligida dasht madaniyatini mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Keyingi tadqiqotlarda dasht madaniyatining alohida hududiy modellari, Botay madaniyatining paleogenetik va arxeologik dalillari, O‘zbekiston vohalari bilan dasht hududlari o‘rtasidagi savdo-madaniy aloqalar hamda qadimgi turkiy yozuv yodgorliklarining siyosiy-madaniy vazifalari chuqurroq o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Asqarov, A. (2007). O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. Universitet.
2. Kumeqov, B. E. (2018). Ob obshchem i osobennom v razvitii tyurkskoy stepnoy tsivilizatsii [On the common and specific in the development of the Turkic steppe civilization]. International Kipchak Institute, 87–92.
3. Mamatqulov, B. (2025). O‘zbekistonning davlatchilik tarixi va tarixshunoslik masalalari. Termiz davlat universiteti ilmiy to‘plami, 73–77.
4. Marg‘ulon nomidagi Arxeologiya Instituti. (2022). Yevraziyskaya stepnaya tsivilizatsiya: chelovek i istoriko-kulturnaya sreda [Eurasian steppe civilization: Man and historical-cultural environment] (Vol. 1). V Mezhdunarodnyy kongress arkheologii yevraziyskikh stepey.
5. Qarshiyev, A. A., Muminov, U. R., & Jo‘raqulova, M. T. (2025). Qadimgi turklarda ovchilik an’anasi va harbiy ta’lim. Termiz davlat universiteti ilmiy to‘plami, 252–258.
6. RUDN Open Repository. (2018). K voprosu o ponimanii kategorii «Stepnaya tsivilizatsiya» v ramkakh tsivilizatsionno-kulturnogo podkhoda [On understanding the category of “steppe civilization” within the civilizational-cultural approach]. Vestnik RUDN, 3–8.
7. Rtveladze, E. V. (2005). Tsivilizatsii, gosudarstva, kultury Tsentralnoy Azii [Civilizations, states, and cultures of Central Asia]. BI.
8. Shaydullayev, Sh. B. (2009). O‘zbekiston hududida davlatchilikning paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlari (Baqtriya misolida) [The emergence and development of statehood in the territory of Uzbekistan: The case of Bactria] (Doctoral dissertation ABSTRACT). Samarqand.
9. Toshboyev, F. E., & Eshmamatova, N. B. (2025). Jizzax vohasining ilk o‘rta asrlar davri ijtimoiy-siyosiy hayoti tarixidan. Termiz davlat universiteti ilmiy to‘plami, 301–306.
10. Tursunov, S. N., Pardayev, T. R., & Ahmedova, G. O‘. (2012). Surxondaryo – etnografik makon [Surkhandarya: An ethnographic space]. Akademnashr.
11. UNESCO/Ufaras. (2026). Zolotaya Orda kak model stepnoy tsivilizatsii: istoriya, arkheologiya, kultura, identichnost [The Golden Horde as a model of steppe civilization: History, archaeology, culture, identity]. International Symposium, Astana.

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000